



2018 yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **28,3 trln.so'mni**, o'sish **11,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-105,0 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **30,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **28,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan 28,3 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 6,5 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 32,4 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 4,6 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 4,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,4 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 28,3 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,2 punkt) o'sishi hisoblanadi.

Yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da







- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,8 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,9 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iyicha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,6 martaga, kaolin - 86,5 % ga, shag'al – 73,4 % ga, ko'mir - 23,1 % ga, gaz kondensati – 21,3 % ga va tabiiy gaz – 6,5 % ga oshganligini, shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,7% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-fevral oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Ko'mir, ming tonna			
585,7		721,0	123,1 ↑
Neft, ming tonna			
134,0		121,0	90,3 ↓
Tabiiy gaz, mln.kub.metr			
9058,2		9649,7	106,5 ↑
Gaz kondensati, ming tonna			
291,7		353,8	121,3 ↑

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,8 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 73,6 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,5 % ga, yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz) – 42,6 % ga, avtomobil benzini - 17,2 % ga, paxta tolasi – 1,0 % ga oshganligini va yuk avtomobillari, avtobuslar, portlandsement, dizel yoqilg'isi, tamaki mahsulotlari va o'simlik yog'i ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-fevral oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz), dona			
17315		24695	142,6 ↑
Yuk avtomobillari, dona			
557		296	53,1 ↓
Avtobuslar, dona			
132		94	71,2 ↓

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Avtomobil dvigatellari, dona			
13131		19897	151,5 ↑
Paxta tolasi, ming tonna			
246,1		248,7	101,0 ↑
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna			
42,7		42,4	99,3 ↓
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
1597,0		1517,0	95,0 ↓
Avtomobil benzini, ming tonna			
175,6		205,8	117,2 ↑
Dizel yoqilg'isi, ming tonna			
172,1		163,3	94,9 ↓
Portlandsement, ming tonna			
1204,4		1066,5	88,6 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,6 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash tizimi hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga va gazzimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 5,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 261,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 46,7 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni - 45,7 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 18,7 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarning – 17,5 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 8,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,0 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,1 % dan 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 60,7 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,3 % ulushini), Toshkent shahar (15,0 %), Navoiy (11,8 %), Andijon (9,7 %), Qashqadaryo (7,6 %), Farg'ona (6,4 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulushi Jizzax (1,5 %), Surxondaryo (1,5 %), Sirdaryo (2,2 %), Namangan (2,3 %) va Xorazm (2,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Surxondaryo (2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 140,5 % ga), Andijon (135,3 % ga), Xorazm (116,6 % ga), Qashqadaryo (114,7 % ga) va Toshkent (112,6 % ga) viloyatlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (3507,7 ming so'm), Toshkent shahrida (1735,7 ming so'm), Toshkent (1618,9 ming so'm) va Andijon (919,1 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (873,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 137,7 % ga), Andijon (133,0 % ga), Xorazm (114,7 % ga) va Qashqadaryo (112,5 % ga) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 28,6 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 69,3 %), Namangan (59,6 %), Samarqand (54,0 %) va Jizzax (51,0 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy viloyatida (9,8 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (11,9 %), Toshkent (16,9 %) va Qashqadaryo (17,0 %) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda respublikada 51 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 12324 tasi Toshkent shahriga, 5575 tasi Farg'ona, 5360 tasi Toshkent, 4950 tasi Andijon, 3953 tasi Namangan,

3842 tasi Samarqand, 2373 tasi Buxoro, 2206 tasi Xorazm, 2152 tasi Qashqadaryo, 1906 tasi Jizzax, 1754 tasi Surxondaryo, 1579 tasi Navoiy, 1146 tasi Sirdaryo viloyatlariga va 1515 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida respublikada 2,1 mingta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 70 % Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi.

**Davlat statistika qo'mitasining
Sanoat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Sharipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46